

SHARTNOMA № 18.

(Siqilgan tabiiy gaz yetkazib berish to'g'risida)

2022.01.27

Bog'ot shaharchasi

"Bogot mega star kemping" MChJ (keyingi bandlarda «Gaz to'ldiruvchi»), nomidan, korxona Ustaviga asosan ish yurituvchi rahbari O.Rajabov bir tomondan va Bog'ot tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (keyingi bandlarda «Iste'molchi») nomidan, korxona Ustaviga asosan ish yurituvchi rahbari O.Avezov ikkinchi tomondan ushbu shartnomani tuzdilar:

1. Shartnoma mazmuni

- 1.1. «Gaz to'ldiruvchi» «Iste'molchi»ning avtotransportlarini siqilgan tabiiy gaz bilan to'ldirishni, «Iste'molchi» esa siqilgan tabiiy gaz uchun o'z vaqtida hisob-kitob qilishni o'z zimmasiga oladilar.
- 1.2. «Gaz to'ldiruvchi» «Iste'molchi» ga 2022 yil davomida 2259.0 m³ siqilgan tabiiy gaz yetkazib beradi
- 1.3. «Iste'molchi» avtotransporti siqilgan tabiiy gaz bilan to'ldirilgan kun gaz to'ldirilgan sana hisoblanadi.

Mahsulot Nomi	O'Ichov birligi	Jami yetkazib berish	Shu jumladan 2022 yil choraklar bo'yicha			
			I Chorak.	II Chorak	III Chorak.	IV Chorak
Avtomoillar uchun siqilgan tabiiy gaz	Kub. Metr	2259.0	2259.0			

2. Hisob-kitob tartibi

- 2.1. Shartnomaning umumiyligi 6 099 300 (Olti million to'qson to'qqiz ming uch yuz) so'm
- 2.2. Siqilgan tabiiy gazning 1 m³ bahosi qo'shilgan qiymat solig'i(QQS) bilan birgalikda 2700,0(Ikki ming yetti yuz) so'mni tashkil qiladi.
- 2.3. Siqilgan tabiiy gazning 1 m³ uchun bahosi xom-ashyolar, moddiy boyliklar, yoqilg'i-energetika resurslari bahosi o'zgarganda, va O'zbekiston Respublikasi qonunlari, qarorlari va normativ aktlariga asosan o'zgarishi mumkin.
- 2.4. «Iste'molchi» avtotransportlarini siqilgan tabiiy gaz bilan to'ldirish «Gaz to'ldiruvchi»ning bankdagi hisob raqamiga 100% to'lov o'tkazilgandan keyin, belgilangan shakldagi tarqatma jadval (razdatochnaya vedomost) bo'yicha amalga oshiriladi. Tarqatma jadval uchun to'lov alohida hisob-kitob qilinadi.

3. Tomonlarning majburiyatları va huquqlari

- 3.1. «Iste'molchi» GBU (gaz ballonli uskuna) bilan jihozlangan avtotransportlarining texnik xolati va texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, sanitariya va ekologiya xavfsizligi uchun javobgar hisoblanadi.
- 3.2. «Iste'molchi» ning majburiyatları:
 - a) GBU o'rnatilgan avtotransportlarni va siqilgan tabiiy gazdan foydalanish to'g'risidagi amaldagi tartiblar, texnik xolatlar, ko'rsatmalar va qarorlarini bajarish;
 - b) GBU ni va avtotransportlarini texnik soz xolatda saqlash;
 - v) Yo'l varaqasida avtotransportning texnik sozligi haqida belgi qo'yish, ballonlar soni va geometrik xajmi to'g'risida ma'lumotlarni ko'rsatish;
 - g) Avtotransportni siqilgan tabiiy gaz bilan to'ldirish uchun belgilangan tartibda ruxsatnomada olish;
 - d) Ballonlarning umumiyligi soni va geometrik xajmi (+,-) 0,5 aniqlikda avtotransport texnologiyasida (maxsus shkalada) yozib qo'yish.
- 3.3. «Gaz to'ldiruvchi» va «Iste'molchi» siqilgan tabiiy gaz bilan ta'minlash va qabul kilishni oy davomida bir maromda, bir kunlik o'rtacha gaz hajmi miqdorida amalga oshiradilar.
 «Iste'molchi» siqilgan tabiiy gazni qabul qilish bo'yicha barcha o'zgarishlar to'g'risida «Gaz to'ldiruvchi» ni oldindan 15 kundan kechiktirmay yozma ravishda yoki telefonogramma orqali ogohlantirishi shart.
 «Gaz to'ldiruvchi» AGNKS da joriy va kapital ta'mir ishlari boshlangan taqdirda «Iste'molchi» ni 3 kun oldin, ishga tushishidan 3 kun oldin ogoxlantiradi.
- 3.4. «Gaz to'ldiruvchi» ning majburiyatları:
 - a) Gaz uskunalaridan to'g'ri foydalanishni, avtotransportlardagi nazorat-o'Ichov asboblarini va gazni ochish-yopish armaturalari sozligini tekshiradi.
 - b) «Iste'molchi» («Iste'molchi» vakili) tomonidan belgilangan qoidalar, gaz to'ldirish reglamenti, mazkur shartnoma shartlari bajarilmagan taqdirda avtotransportga siqilgan gaz to'ldirishni to'xtadi.

4. Siqilgan gaz hisob-kitobi tartibi

- 4.1. «Gaz to'ldiruvchi» tomonidan «Iste'molchi» avtotransporti to'ldirilgan siqilgan tabiiy gaz xajmi «Gaz to'ldiruvchi» ning o'Ichov asboblari orkali aniklanadi.

5. Tomonlarning javobgarligi

- 5.1. Siqilgan tabiiy gazni qabul qilish mazkur shartnomada ko'rsatilgan xajmdan oshgan taqdirda qo'shimcha shartnoma tuziladi.

5.2. Sinqilgan tabiiy gaz uchun to'lovlarni amalga oshirish maqsadida «Iste'molchi» mol-mulkini garovga qo'yish, kafillik majburiyatlari, «Iste'molchi» karzi evaziga mol mulki bilan hisoblashishi notarius tomonidan tasdiqlangan qo'shimcha shartnomalar tuzish orqali amalga oshiriladi.

5.3. Tomonlar mazkur shartnomada belgilangan shartlarni bajarmagan takdirda O'zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq javobgar hisoblanadilar.

5.4. Ushbu shartnomaning amal qilish muddatida vujudga keladigan kelishmovchiliklarni «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy huquqiy bazasi to'g'risidagi» O'zbekiston Respublikasi qonuni, Iqtisodiy Protsessual Kodeksi va boshqa normativ xujjatlarga muvofiq ravishda tartibga solinib boriladi.

5.5 «Sotuvchi» yetkazib bergen mahsulotlari assortimenti va sifati bo'yicha talabga javob bermasa haridor mahsulotni qabul qilishni rad etadi hamda sotuvchi shu mahsulotning 20 % miqdorida jarima to'laydi.

6. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLASHUV

6.1. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlaridagi Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishontiradi va ularga amal qilishini kafolatlaydi. Iste'molchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdar shaxslari, direktori, xodimlari, agentlari va boshqa vakillari) Ta'minotchi korxonanining manfaatlarida uning agenti yoki vakili sifatida harakat qilib, Ta'minotchi korxonaning hamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlarining Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qat'iy roya etish majburiyatini oladi.

7. Fors major

7.1. «Gaz to'ldiruvchi» va «Iste'molchi» quyidagi xolatlarda gaz to'ldirish va qabul qilish xajmini kamaytirganligi uchun javobgar hisoblanmaydi:

a) Gaz qazib chikarish konlarida, magistral gaz quvurlarida, shahar, tuman gaz tarmoqlarida, elektr tarmoqlarida kutilmagan avariya xolatlari sodir bo'lganda;

b) Magistral gaz quvurlarida, shahar, tuman gaz tarmoqlarida, elektr tarmoqlarida navbatdagi joriy va kapital ta'mir ishlari, sinovlar o'tkazilganda va payvandlash ishlari davrida.

8. Shartnoma muddati

8.1. Mazkur shartnoma tomonlar imzolagan kundan kuchga kiradi va «31» dekabr 2022 yilgacha amal qiladi.

8.2. Shartnoma ikki nusxada – har bir tomon uchun bittadan tuzilib, ikkalasi ham bir xil yuridik kuchga ega.

8.3. Mazkur shartnoma bo'yicha nizolar iqtisodiy sudda, O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda hal qilinadi.

9. Tomonlar yuridik manzillari va rekvizitlari

«Gaz to'ldiruvchi»
ООО "Bogot mega star kemping"
<i>Manzil: Xorazm viloyati Bog'ot tumani Xo'jalik qishlog'i</i>
<i>Telefon: 97 601 05 06</i>
<i>H/r: 20208000500855948002</i>
<i>Bank: Mikrokredit bank Bog'ot bo'limi</i>
<i>MFO: 00557 STIRI 205376518 OKED: 47300</i>
<i>Rahbar: _____ O.Rajabov</i>


«Iste'molchi»
Bog'ot tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (byudjetdan mablag oluchiningnomi)
Manzili: Bogot tuman Tinchlik kucha 2 uy
Tel/faks: 31-52-783 sh/hr*: 100022860332047065200110001
byudjetdan mablag oluchi STIRI: 206943827 OKONX: 90290 G'aznachilik bo'linmasi nomi Moliya Vazirligi yagona gazna xisobvaragi G'azna h\w 23402300100001010
Bank nomi: Markaziy bank Toshkent shaxar bosh boshkarmasi XKKM MFO: 00014 G'aznachilik bo'linmasi STIRI 201122919 Raxbar _____ O.Avezov (lavozimi) (F.I.SH)



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA № KK21501600**

1. Loyiha turi: **Shartnoma**

2. Loyiha nomi: Bog‘ot tuman obodonlashtirish boshqarmasi va “Bogot mega star kemping” MChJ o‘rtasida tuzilgan siqilgan gaz mahsulotlarini yetkazib berish shartnomasi

3. Loyihaning ishlab chiqaruvchisi va kiritilgan sana haqida ma’lumot:

Bog‘ot tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022-yil 27-yanvarda ishlab chiqilgan va 2022-yil 27-yanvar kuni dasturga kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan hamda uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Bog‘ot tuman yuridik xizmat
ko‘rsatish markazi bosh yuriskonsulti**



D.Matiyazov
28.01.2022 yil